O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Наманган вилояти

Namangan viloyati 160100, Namangan shahri, A.Temur ko‘chasi, 105-uy, Tel. (69)-233-02-50, E-mail: namexpert@umail.uz www.mc.uz www.mc.uz

Holati: Ijobiy
Direktor: Isakdjanov Avazbek Ismondjonovich
Sana:06-11-2022 yil

**Yig'ma ekspert xulosasi № 68700**

**Obyekt nomi** «Namangan viloyati Uychi tumani Xojiobod MFY hududida joylashgan TTBga qarashli 37-olilaviy poliklinika binosini ta’mirlash»

**Buyurtmachi –** Uychi tumani Tibbiyot birlashmasi bo‘limi
**Bosh loyihachi** - “AMK ECO PROJECT” MCHJ
**Litsenziya** AL-000294 26.10.2019 yilda O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi tomonidan berilgan
**Moliyalashtirish manbai** - Budjet
**Bosh pudratchi** – Tanlov asosida
**Qurilish turi** Mukammal ta’mirlash
**Murojaat raqami:** № 64016

**1. Loyihalash uchun asos**

1.1. Xalq deputatlari Uychi tumani kengashining 29.09.2022 yildagi VI-57-131-6-86-K/22-sonli qarori.

1.2. Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyiha topshirig‘i.

1.3. “NAMMQI HITECH CONSTRUCTION” UK tomonidan 2022 yilda bajarilgan texnik tekshirish natijalari bo‘yicha xulosa

1.4. Loyiha va tadqiqot ishlari uchun tuzilgan 18.10.2022 yildagi 1908-6-86-TB/2022-sonli shartnoma.

**2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar**

2.1. “Ishchi loyiha”ni ishlab chiqish bosqichidagi loyiha hujjatlari:

- Umumiy tushuntirish yozuvi.

- Poliklinika binosi. Arxitektura va qurilish, suv va oqava suv ta’minoti, elektr yoritish, yong‘in signalizatsiya qismlari.

- Bosh reja.

- Smeta hujjatlari.

**3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni**

**3.1. Qurilish uchastkasi tavsifi.**

37-olilaviy poliklinika Uychi tumani hududida joylashgan bo‘lib, tanlangan joy IV-iqlimiy sharoitga to‘g‘ri keladi. Zilzilaga bardoshliligi bo‘yicha – 8 ball. Tashqi havo harorati – 14°s. Me’yoriy qor yuklamasi – 0,50 kPa, shamol yuklamasi – 0,38 kPa. Yerni tuzilish relefi – tekis.

**3.2. Bosh reja.**

37-olilaviy poliklinikasining mavjud hududda joylashgan: mavjud bino va inshootlari hamda mukammal ta’mirlanayotgan poliklinika binosi. Hudud obodonlashtirilgan va ko‘kalamzorlashtirilgan.

**3.3. Loyihaning asosiy yechimlari.**

*1. Poliklinika binosi.*

Bino – 2 qavatli, yerto‘lasiz, pishiq g‘ishtdan, uchta bir biriga yopishgan to‘g‘ri to‘rtburchak shaklni tashkil etib, “A-B” va “1-3” o‘qlar bo‘yicha 10,0mx12,0m o‘lchamda, “V-D” va “1-8” o‘qlar bo‘yicha 12,4mx47,4m o‘lchamda, “A-B” va “6*-8” o‘qlar bo‘yicha 10,0mx12,0m o‘lchamda, xonalar balandligi – 3,0m. Texnik xulosaga ko‘ra binoning umumiy xolati qoniqarli. Ta’mirlash jarayonida tashqi deraza bloklarini almashtirish, ichki pardozlash ishlarini bajarish, o‘lchami katta bo‘lgan derazalarni optimallashtirish (qisqartirish), pollarni ta’mirlash, proyomlarni ochish va mustahkamlash, suv va oqava suv, elektr yoritish, yong‘in signalizatsiya qismlarini ta’mirlash va qurish, shuningdek loyihaga asosan boshqa ishlarni bajarish ko‘zda tutilgan.

**4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:**

**5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.**

- Uychi tumani SEO va JSBning 4.11.2022 yildagi 32-sonli xulosasi (160-shakl).

- O‘zbekiston nogironlar Assotsiatsiyasi Namangan viloyat hududiy bo‘limining 3.11.2022 yildagi 110-sonli xulosasi.

- Xonalar joylashtirish rejasi Uychi tumani Tibbiyot birlashmasi bilan kelishilgan.

**6. Ekspertiza natijalari.**

6.1. Ekspertiza jarayonida mutaxassislarning izohlariga muvofiq loyiha hujjatlariga quyidagi asosiy tuzatishlar va qo‘shimchalar kiritildi:

6.1.1. Umumiy tushuntirish yozuvi – o‘zgartirildi.

6.1.2. Uychi tumani SEO va JSBning 1460-shakldagi xulosasi – taqdim etildi.

6.1.3. Loyiha topshirig‘i – o‘zgartirildi.

6.1.4. O‘zbekiston nogironlar Assotsiatsiyasi Namangan viloyat hududiy bo‘limining xulosasi – taqdim etildi.

*Poliklinika binosi.*

6.1.5. Umumiy ma’lumotlar varag‘i – o‘zgartirildi.

6.1.6. Xonalar joylashtirish rejasi Uychi tumani Tibbiyot birlashmasi bilan – kelishildi.

6.1.7. Qirqimlarda tom tarkibi – ko‘rsatildi.

6.1.8. Pollar tasnifi jadvali – o‘zgartirildi.

6.1.9. Ichki pardozlash ish turlari jadvali – o‘zgartirildi.

6.1.10. Derazalar ishchi chizmasi – ishlandi.

6.1.11. Loyihada ochilgan eshik o‘rnini mustahkamlash ishchi chizmalari – ishlandi.

***Muhandislik ta’minoti.***

*Kuchsiz tok.*

6.1.12. ShNQ2.01.02-04ning 6.1-talabi 6-bandostiga asosan o‘zidan yorug‘lik chiqaruvchi bo‘yoq (lyuminafor) yordamida evakuatsiya yo‘llarini chiziqlar bilan belgilash – ko‘zda tutildi.

*Ichimlik va oqavasuv ta’minoti.*

6.1.13. QMQ2.04.01-98ning 6.1-bandiga muvofik ichki yong‘inga qarshi suv tizimi – ko‘zda tutildi.

6.1.14. QMQ2.04.01-98ning 17.18-bandiga muvofiq ichki oqavasuv chizmasi – o‘zgartirildi.

6.1.15. Loyihada suv saqlash sig‘imining hajmi – o‘zgartirildi.

6.1.16. Loyihada quyosh kollektori – ko‘zda tutildi.

6.2. Ekspertiza natijalariga ko‘ra buyurtmachining boshqa xarajatlarisiz va qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan 960293,190 ming so‘m miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati 919,317 ming so‘mga kamaytirilib**, 959373,873 ming so‘m** qilib belgilandi. Xususan:

| | | |
|---|---|---|
| Qurilish-montaj ishlari: | 809830,282 | ming so‘m |
| Asbob-uskunalar: | 24407,868 | ming so‘m |
| QQS: | 125135,723 | ming so‘m |

6.3. Yakuniy xarajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so‘ng nazorat o‘lchovi natijalari asosida aniqlanadi.

6.4. Buyurtmachi loyiha hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6.5. Ekspertizadan o‘tkazish uchun taqdim etilgan loyiha hujjatlarining to‘liqligi, ma’lumotlarning ishonchliligi yuzasidan buyurtmachi va qabul qilingan loyiha yechimlari yuzasidan ishlab chiquvchi javobgar hisoblanadi.

## 7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda “Namangan viloyati Uychi tumani Xojiobod MFY hududida joylashgan TTBga qarashli 37-olilaviy poliklinika binosini ta’mirlash” ishchi loyihasi kelgusida ko‘rib chiqish va tasdiqlashga tavsiya etiladi.

**Bosh mutaxassis:** Abdunazarov Nemadjon Abdurazakovich